

**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**COMPARATIVE ANALYSIS OF SYNONYMS IN UZBEK AND HINDI LANGUAGES****Aytjamol Abdulazizovna Yunusova**

Senior lecturer

TSUOS

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: linguistics, comparative analysis, Uzbek, Hindi, Sanskrit, Arabic, Persian languages, synonyms.

Received: 15. 05. 24**Accepted:** 17. 05. 24**Published:** 19. 05. 24

Abstract: The topic of this article is devoted to a comparative analysis of synonyms in Uzbek and Hindi languages. Synonyms are widely used in all languages. Synonyms express various characteristics of things, events and persons that they express, and on their basis words with additional meanings are formed. Indian linguists define Hindi synonyms as words with similar meanings. Synonyms occupy a special place in the vocabulary of the Hindi language. Synonyms help avoid repetition of words and the use of the same words in the text. Words belonging to Sanskrit, Arabic, Persian languages and English have created new synonyms and further enriched the vocabulary of the Hindi language. A comparative analysis of synonyms, their types and structural structures in the Uzbek and Hindi languages was carried out.

O‘ZBEK VA HINDIY TILLARIDAGI SINONIMLARNING QIYOSIY TAHLILI**Aytjamol Abdulazizovna Yunusova**

katta o‘qituvchisi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: tilshunoslik, qiyosiy tahlil, o‘zbek tili, hindiy tili, sanskrit, arab tili, fors tili, sinonimlar.

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek va hindiy tillaridagi sinonimlarning qiyosiy tahlili o‘rganib chiqildi. Sinonimlar har bir tilda keng qo‘llaniladi. Sinonimlar o‘zlari ifoda qilayotgan narsa, hodisa va shaxslarning turli xil belgilarini ifodalab, ular asosida qo‘shimcha ma‘nodosh so‘zlar hosil qiladi.

Hind tilshunoslari sinonimlarni ma'nosi bir-biriga o'xshash so'zlar deb ta'riflashgan. Hindiy tilining leksik zaxirasida sinonimlar alohida o'rin tutadi. Sinonimlar matnda so'zlarning takrorlanishi va bir xil so'zlarni qo'llamaslikga yordam beradi. Sanskrit, arab, fors, ingliz tillariga mansub so'zlar yangi sinonimlarni hosil qilib, hindiy tili leksik zahirasi yanada boyitdi. O'zbek va hindiy tilidagi sinonimlar, ularning turlari va strukturaviy tuzilishi qiyosiy tahlil qilindi.

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ СИНОНИМОВ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ И В ЯЗЫКЕ ХИНДИ

Айтжамол Абдулазизовна Юнусова

Старший преподаватель

ТГУВ

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: лингвистика, сравнительное изучение, узбекский язык, хинди, санскрит, арабский язык, персидский язык, синонимы.

Аннотация: В данной статье изучены сравнительный анализ синонимов в узбекском языке и хинди. Синонимы широко используются во всех языках. Они выражают различные признаки вещей, событий и лиц, на основе которых, образуются новые слова с дополнительными значениями. Индийские лингвисты языка хинди определяют синонимы, как слова со схожим значением. Синонимы занимают особое место в лексическом запасе языка хинди. Синонимы помогают избежать повторения слов и тавтологии в тексте. Слова, принадлежащие к санскриту, арабскому, персидскому и английскому языкам, создали новые синонимы и еще больше обогатили словарный запас языка хинди. Проведен сравнительный анализ синонимов, их видов в узбекском языке и языке хинди.

KIRISH

Talaffuzi va yozilishi har xil, shakli har xil bo'lsa ham ma'nosi bir-biriga yaqin so'zlar sinonimlar deyiladi. Bir xil ma'noning bir necha so'z shakllari orqali berilishi sinonimlarni yuzaga keltiradi. Sinonim yunoncha so'z bo'lib *synonymos* – “bir nomli” degan ma'noni anglatadi. Shakli har xil, ma'nosi esa bir xil yoki bir oz farqli bo'lgan til birliklari qatoridagi har bir til birligi. Sinonimlar bir umumiy ma'noga ega bo'lgan, qo'shimcha ma'no ifoda xususiyati bilan farqlanadigan so'zlardir. Masalan: odat, rasm, udum, taomil, urf, an'ana sinonimlari bi xil ma'noga

ega bo'lish bilan birga, turli jihatdan o'ziga xos xususiyatlarga ega. Mazkur maqolada biz o'zbek va hindiy tillaridagi sinonimlarni qiyosiy tahlil qilishga maqsad qildik.

ASOSIY QISM:

Sinonimlar ma'nodosh so'zlar bo'lib, o'zlari ifoda qilayotgan narsa va hodisalarning har xil belgilarini ifodalaydi. Sinonimlarda qo'shimcha ma'nolar bo'ladi va ular bir-biridan farq qiladi, yetakchi ma'no esa ularni birlashtirib turadi. Har bir guruhdagi ma'nodosh so'zlarda dominant deb yuritiluvchi asosiy so'z bo'ladi. Masalan: yuz, bet, chehra, aft, bashara, oraz. Bu sinonimlarda yetakchi ma'noni ifodalagan so'z - yuz so'zidir. O'zbek tilida sinonimlar, asosan, ikki usul bilan hosil bo'ladi: a) yangi so'zning paydo bo'lishi natijasida so'z o'zlashtirish; b) so'z yasash orqali paydo bo'ladi;

1. Quyidagi sinonimlar boshqa tildan so'z o'zlashtirish natijasida yuzaga kelgan: sevgi (o'zbek)- muhabbat (arab); kuch (o'zbek) - qudrat (arab); buyruq (o'zbek)- amr (arab)-farmon (tojik); yozuvchi (o'zbek) -adib (arab); manglay (o'zbek)-peshona (tojik); ko'klam (o'zbek)-bahor (tojik); qo'shin (o'zbek)-armiya (rus); firibgar (o'zbek)-aferist (rus); yurak (o'zbek)- dil (tojik)-qalb (arab).

2. Tilda bor so'zlar yangicha ma'no kasb etib, yangi sinonimik qatorni yuzaga keltiradi: vazifa-topshiriq; xotira-yodgorlik-esdalik; farq –ayirma; maosh-moyana-oylik. O'zaro sinonim bo'lgan so'zlardan bir xil yasovchi qo'shimcha vositasida sinonimlar yuzaga keladi: chidamli-bardoshli-sabrli-toqatli. Til birliklarining bir xil ma'noga ega bo'lish hodisasi sinonimiya deyiladi. Sinonimiya- ning birligi bir umumiy ma'noga ega bo'lgan so'zlar sinonimlardir. Sinonimlar lug'aviy, frazeologik va sintaktik sinonimlarga bo'linadi. O'zaro sinonim bo'lgan so'zlar guruhi sinonimlar qatori deyiladi. Sinonimlar qatoridagi bir so'z asosiy so'z deyiladi. Masalan: o'zbek tilidagi *chiroyli* so'ziga go'zal, xushro'y, zebo, latofatli, sohibjamol so'zlari sinonim bo'ladi. Sinonimlar asosan 4 tipga bo'linadi:

1. So'zlarning, ya'ni birdan ortiq so'zning ma'no munosabati aynan bir xillikka asoslangan sinonimlar absolyut sinonimlar deb ataladi. Masalan: Tilshunos - lingvist, cho'pon- podachi, kompozitor- bastakor. 2. Ma'nolari jihatidan farqlanuvchi sinonimlar semantik tipga kiradi: botir, jasur, qo'rqmas. 3. Nutq situatsiyasi yoki kontekstga ma'nolari jihatidan bir – birining o'rnida ishla- tiladigan sinonimlar kontekstual sinonimlar deb ataladi: yozuvchi, adib, shoir, ijodkor, muallif. 4. Emotsional hissiyotini ifodalovchi sinonimlar stilistik sinonimlar deyiladi: yuz, aft, chehra, ruxsor, oraz, nusxa, bashara, turq.

Sinonomik qatorga kiruvchi har bir so'z boshqa so'zlar bilan ma'lum aloqada bo'ladi. Rus tilidan o'zlashgan so'zlar ona tilidagi so'zlar bilan bir ma'noni ifodalash uchun qo'llanib, sinonim bo'lib qoladi. Misol uchun, prokuror – qoraluvchi, advokat – oqlovchi, taftish- reviziya. Sinonimlar asosan, ikki yo'l bilan paydo bo'ladi, ya'ni har bir tilning o'z ichki imkoniyatlari

asosida: qari – kekxa, mo‘ysafid; chiroyli – go‘zal, katta – ulkan. Rus tilidan o‘zlashgan sinonimlar quyidagilar: bo‘lim - otryad, guruh- grupp, reja – plan, korxona – zavod, usta - master, sinf - klass, o‘rindiqlar - stul. Bu so‘zlar o‘zbek tilida ommabop bo‘lib ketgan va kundalik hayotimizda keng qo‘llaniladi.

Hindiy tilidagi sinonimlarning ko‘pchilik qismini sanskrit, tub hindiycha so‘zlar va arab fors va ingliz tillaridan o‘zlashgan so‘zlar tashkil qiladi. Hindiy tili lug‘atining asosiy qismini sanskrit so‘zlari tashkil etadi. Hindiy tili leksikasida eng ko‘p qo‘llaniladigan so‘zlar sanskrit so‘zlari hisoblanadi va sinonimik birliklar paydo bo‘ldi. Hindiy tili lug‘at tarkibi kelib chiqishi jihatidan ikki katta guruhga bo‘linadi.

1. Hindiy tili so‘zlari (hind-oriy tillari guruhidan kirgan so‘zlar).

2. Chet tillari so‘zlari (arab, fors, ingliz, portugal, fransuz). Hindiy tili so‘zlari o‘z navbatida uch guruhga bo‘linadi: 1. Tatsama – sanskrit tilidan hindiy tiliga hech qanday o‘zgarishsiz kirgan so‘zlar. 2. Tadbhava- qadimiy davrdan to hozirgacha bo‘lgan fonetik va semantik jihatdan shakllangan hindiy tiliga xos bo‘lgan so‘zlar. 3. Deshiya - Hindistonning hind-oriy tillariga mansub bo‘lmagan (dravid, munda) tillari. Bu tillarda ham sinonimlar ko‘p uchraydi, ba‘zan aralash hollarda ham qo‘llaniladi. VIII asrda arablarning Hindistonning g‘arbiy qismidagi Sind viloyatining bosib olinishi natijasida ushbu hududda musulmon aholi ham istiqoma mat qila boshladi. Hindiy tili leksikasiga arab tili so‘zlari kira boshladi. Afg‘on hukmdorlari tomonidan Dehli sultonligi g‘arbiy asos solinishi natijasida Shimoliy Hindistonda fors tili davlat tili deb e‘lon qilindi. Hindiy tilida so‘zlashuvchi omma tomonidan forscha so‘zlarning o‘zlashtirilishi bilan hindiy tili lug‘atida forscha sinonimlar ham paydo bo‘ldi.

arab-fors va sanskrit sinonimlari hindiy va sanskrit sinonimlari

अखबार a. — समाचार-पत्र gazeta कपड़ा-वस्त्र kiyim

जिन्दा f. - जीवित tirik फिर -पुनः yana

हज़ार f. - सहस्र ming पहला- प्रथम birinchi

यानी a. - अर्थात् ya’ni सारा-समस्त butun

ज़मीन f. - पृथ्वी yer के सामने - के सम्मुख oldinda

ज़ालिम a. - निर्दय zolim आँख- नयन ko‘z

Fikrni yanada aniqlashtirib bera oluvchi so‘zlar, ma’nolari to‘g‘ri keladigan so‘zlarni tashkil qilishi kerak. Ko‘p tillarda bo‘lgani kabi hindiy tilida ham absolyut, semantik (ideografik) va stilistik kategoriyalar bor. Hindiy tilining rivojlanishi va leksikasida hozirgi paytda absolyut sinonimlar keng tarqalgan. Hindiy tilida *absolyut* sinonimlarining ko‘p qatorlari sanskrit tili so‘zlaridan iborat. Absolyut sinonimlarning ko‘p qatorini nafaqat sanskrit sinonimlari, balki arab-fors tillaridan kirgan sinonimlardan iboratdir.

1. a) bir asosli yasalgan inkor prefikslari bilan yasaladi-

अजल, निर्जल - suvsiz; अजीव, निर्जीव – jonsiz; बेइलाज, लाइलाज - davosiz;

b) – sinonimik asosi bir xil bo‘lgan turli xil inkor prefikslaridan yasalgan sinonimlar:

निर्जीव - निष्प्राण bejon, निर्दय-निर्मम johil, बेतमीज – बेअदब tarbiyasiz

c) bir asosdan yasalgan inkor prefix va suffikslari bilan yasaladi

निर्बल -बलहीन kuchsiz, निर्धन - धनहीन kambag‘al

d) bir asosdan yasalgan sinonimik suffikslar

दासता, दासपन, दासत्व – qullik, चढ़ाव, चढ़ाई -ko‘tarilish

2. Stilistik sinonimlar bir-biridan stilistik mansubligi va semantik ekspressivligi bilan farqlanadi. Stilistik sinonimlar badiiy adabiyotda va yozma nutqda ko‘proq uchraydi, shu bilan bir qatorda neytral uslubda, ya’ni hindiy tili so‘zlashuv og‘zaki nutqida ham qo‘llaniladi.

गरीब गाँव आदर्श ग्राम बन गया। Kambag‘al qishloq namunlai qishloqqa aylandi.

Bu sinonimik juftlik “ qishloq” गाँव so‘zi neytral uslubga taaluqli, ikkinchisi so‘z ग्राम esa “yuqori hindiy “ uslubiga taaluqlidir. Shuningdek, stilistik sinonimlar matbuotda ham qo‘llaniladi. Masalan: do‘stlik so‘zining दोस्ती, मैत्री, मित्रता sinonimlaridan मैत्री ko‘proq qo‘llaniladi.

हमारी जनता भारत-उज्बेकिस्तान की मैत्री पर अत्यंत संतोष है।

Bizning xalqimiz Hindiston-O‘zbekiston do‘stligidan juda mamnun.

3. Boshqa tillardan o‘zlashgan sinonimlar:zarur जरूर arabcha, dunyo dunya, جهان forscha.

Hindistonga eronliklarning va islom dinining kirib kelishi Hindistonda fors tili va adabiyotining yana rivojlanishiga ta’sir qildi. Arab va forscha sinonimlar hindiy tili lug‘aviy zaxirasini yana ham boyitib, kundalik hayotda va gazetalarda qo‘llanila boshlandi: yil - बरस hindiycha, سال forscha; kitob - पुस्तक hindiycha किताब arabcha; yomon - बुरा hindiycha, खراب arabcha; qirg‘oq किनारा forscha, तट hindiycha.

4. Semantik sinonimlar - hinduizm mifologiyasi va afsonalarida ko‘p uchraydi. Illohlar, ma’budlar, yer, o‘qituvchi, hikoya, o‘lim, qo‘l kabi so‘zlarning ko‘pgina sinonim-epitetlari ko‘p uchraydi. Hindiy tilida Vishnu ma’budi ismining yuzdan ortiq sinonim-epitetlari bor: अजीत - Yengilmas , अतिदेव -Buyuk ma’bud, कुमुद - Qizil nilufar , चतुर्भुज - To‘rtqo‘llik , साहस्रनयन - Mingko‘zlik, इंद्र के भाई - Indraning ukasi, कुमुद - Qizil nilufar , अनंत Mangu,शंखदार- Chig‘anoq sohibi, प्रकृति के भगवान – Tabiat illohi. O‘qituvchi so‘zining o‘ndan ortiq sinonimlari mavjud: गुरु, अध्यापक, पंडित, शिक्षक, मुंशी, अध्यापक, प्रशिक्षक, प्राध्यापक, उपदेष्टा, उस्ताद, मुअल्लिम, शास्त्रवेत्ता, प्रवक्ता, टीचर, ट्यूटर.

Sanskrit soʻzlari va sinonimlari hozirgi paytda hindiy tili lugʻatining asosiy qismini tashkil qilsada, ogʻzaki nutqda kam qoʻllanilmaydi, asosan diniy adabiyotlar va qoʻlyozmalarda koʻproq uchraydi. Inglizlar kelmasdan avval Hindistonda fors tili davlat tili edi. 1835 yilga kelib inglizlar Hindistonni toʻliq ishgʻol qilganidan soʻng fors tilining oʻrniga ingliz tili davlat tili deb eʼlon qilindi. Mamlakatda ingliz tilini oʻrganish rivojlandi va shu bilan bir qatorda ingliz tilidagi adabiyot keng omma ichida tez tarqaldi. Xususan, davlat va xususiy muassasalar, korxonalar, bank va moliya sohalarida ish yuritish hujjatlari va oliy oʻquv yurti, maktabda oʻqish ingliz tilida yuritila boshlandi. kitob - बुक inglizcha पुस्तक hindiycha किताब arabcha majlis - मीटिंग inglizcha सभा, बैठक hindiycha जलसा arabcha किसी शब्द के समान अर्थ के लिये जिन शब्दों को प्रयोग में लाया जाता है उन्हें पर्यायवाची शब्द कहा जाता है⁴ Bir xil ma'noga ega boʻlgan soʻzlar sinonimlar deyiladi.

Hind tilshunoslari sinonimlar bu maʼnosi bir- biriga oʻxshagan soʻzlar deb taʼkidlashgan. Chiroyli soʻziga hindiy tili tilida quyidagi sinonimlar bor: खूबसूरत, सुंदर, रूपवती, रमणीय, सुखदायक, मंजु, ललित sinonimlari mos tushadi. Sinonimlar qatoridagi bir soʻz asosiy soʻz deyiladi. Maʼlumki, hindiy tilining lugʻat tarkibida arab va fors tillaridan kirgan oʻzlashgan soʻzlar koʻp uchraydi. Jumladan, खूबसूरत (खूब forscha, सूरत arabcha) soʻzi juda ommabop soʻz hisoblanadi. Sinonim soʻzlar uslubiy jihatdan qoʻllanilishiga koʻra farqlanadi. *Chiroyli*- खूबसूरत soʻzi soʻzlashuv uslubida keng qoʻllanilsa, hindiy tili adabiy nutqida *goʻzal* soʻzi - रूपवती sinonimi bilan ifodalaniladi. Bu soʻzlarni tarjima qilish jarayonida uslubiy jihatdan xatoga yoʻl qoʻymaslik kerak. Hindiy tilida ikki xil jins vakilini ajratish maqsadida ikki xil soʻz ishlatiladi.

रूपवती लड़की - goʻzal qiz सुडौल लड़का - kelishgan bola

शाहजहाँ का विवाह ताजबीबी नाम की अति रूपवती लड़की से हुआ था।

Shohjahan Tojbibi nomli nihoyatda goʻzaj qizga uylangan edi.

जवाहरलाल नेहरू बचपन से ही वे एक सुंदर और सुडौल बालक थे।

Javoharlal Neru yoshligidanoq chiroyli va kelishgan bola edi.

Oʻzbek tilida yuz soʻzining quyidagi sinonimlari bor: chehra, aft, bashara. Bu sinonimlar qatorida sosiy yetakchi soʻz - yuz soʻzidir. Hindiy tili imlo lugʻatida fors, arab tillaridan kirgan yuz sinonimlari koʻp uchraydi. Masalan: चेहरा (forscha) मुँह, मुखड़ा (hindiycha), सूरत(arabcha), शकल (arabcha). Bu sinonimlarda मुँह yuz soʻzi asosiy soʻz hisoblanadi. Xudo, olloh, rabbim, tangri, parvardigor sinonimlarining hindiy tilida quyidagi shakllari bor: ईश्वर, भागवान, देवता, परमेशवर, देवता, रब(arabcha), अल्लाह (arabcha), खुदा (forscha). Sinonim soʻzlar frazeologizmlar orasida ham uchraydi.

Masalan, o'zbek tilidagi "do'ppisini osmonga otdi" va "og'zi qulog'iga yetdi" kabi iboralar bir xil ma'noni ya'ni, "qattiq xursand bo'lmoq" degan ma'noni anglatadi. Ushbu iborani hindiy tilida ham ko'rishimiz mumkin:

उसके मुँह पर बसंत खिलता था। Uning yuzi gul-gul yonardi.

Hozirgi kunda hindiy tilida turli tillardan o'zlashgan sinonimlar ko'p uchraydi:

yil - बरस hindiycha, साल forscha; kitob - पुस्तक hindiycha किताब arabcha; yomon- बुरा hindiycha, खराब arabcha; qirg'oq किनारा forscha तट hindiycha

yordam bermoq - सहायता करना hindiycha मदद करना urducha

foydalanmoq- प्रयोग करना hindiycha इस्तेमाल करना arabcha

maqtamoq - तारीफ़ करना arabcha प्रशंसा करना hindiycha

Sinonim so'zining ham hindiy tilida bir necha xil nomlanishi mavjud: उपशब्द, पर्याय, पर्यायवाची, उपशब्द, समानार्थक, समानार्थी। Misol uchun: गेटवे ऑफ इंडिया अब मुम्बई शहर का पर्यायवाची बन गया है।

Hindiston darvozasi endi Mumbai shahrining sinonimiga aylandi.

Bu jumlada qo'llanilgan sinonim so'zi Hindiston darvozasi so'ziga ekvivalent hisoblanadi.

O'zbek tili kabi hindiy tilida ham sinonimlarning katta zaxirasi mavjud. Bu zaxiraga kiruvchi sinonimlar tilning lug'at tarkibini boyitib, uni yanada kengaytirish uchun xizmat qiladi. Tildagi sinonimlarni yaxshi bilish va ulardan to'g'ri foydalanish jumalarning ravon va jozibador, shirali va ta'sirchan qilib ifodalash imkonini beradi. Shuningdek, bilim ko'nikmalarini shakllantirishga va nutqimizni boyitishga katta imkoniyatlar yaratadi. Sinonimiyaning 4 ta asosiy ko'rinishi mavjud:

1. Leksik sinonimiya- leksemalarning bir xil ma'no anglatishiga ko'ra guruhla- nishidir.

in, uya - घोंसला; nur, shu'la, yog'du, ziyo - किरण, शोला, रोशनी; प्रकाश, inson, odam, shaxs - इंसान, आदमी, व्यक्ति, मनुष्य, पुरुष

2. Frazelogik sinonimiya. Masalan, o'zbek tilidagi "do'ppisini osmonga otdi" va "og'zi qulog'iga yetdi" kabi iboralar bir xil ma'noni ya'ni, "xursand bo'lmoq" degan ma'noni anglatadi. Ushbu iborani hindiy tilida ham ko'rishimiz mumkin: मुँह पर बसंत खिलना – juda xursand bo'lmoq

3. Affiksial sinonimiya. Affikslarning shaklan har xil, umumiy ma'nosi bir xil bo'lish hodisasi affiksial sinonimiyadir. Ayni vazifasi bir xil affikslar doirasida, ya'ni so'z yasovchilar bilan yasaladi: o'rinsiz va noo'rin, g'ayratli va serg'ayrat;

4. Grammatik sinonimiya. So'z bilan so'zning ma'nodoshligi leksik sinonimiya, ibora bilan ibora o'rtasidagi ma'nodoshlik frazeologik sinonimiya, so'z yasovchi qo'shimchalar o'rtasidagi ma'nodoshlik affiksial sinonimiya, grammatik ma'no ifodalovchi qo'shimchalar va qo'shimchalar

bilan yordamchi soʻz shuningdek, gap boʻlaklari, soʻz birikmalari gaplar oʻrtasidagi maʼnodoshlik grammatik sinonimiya deb ataladi.

Sinonimlar soni soʻzlashuvda ishlatiladi. Lekin stilistik sinonimlarning soni hindiy badiiy adabiyotida uchraydi shu bilan bir qatorda neytral stilda oddiy hindiy stilida juda koʻp qoʻllaniladi. Sinonimik qatorlar turli soʻz turkumlari bilan ifodalanadi:

1. Otlar: bogʻ - उद्यान-उपवन- बाग — बागीचा - बाटिका; osmon- आकाश — गगन, आसमान, अम्बर; maktab: मकतब, पाठशाला, स्कूल;

2. Sifatlar: chiroyli - खूबसूरत — सुन्दर — रूपवती — रमणीय — सुखदायक — मंजु — ललित; aqlli - समझदार, बुद्धिमान, होशियार, चालाक;

3. Sonlar: पहला - प्रथम - आदिम; दूसरा — द्वितीय — तीन - तृतीय; oʻnlab - दसों, दशक;

4. Ravishlar: ohista आहिस्ता — धीरे — धीमे; yonida - के निकट, के करीब, के नज़दीक, के आस-पास;

5. Bogʻlovchilar: पर — परन्तु — किन्तु — मगर;

6. Feʼllar: तय करना - निश्चय करना - फैसला करना; yordam bermoq - सहायता करना - मदद करना - समर्थन करना; foydalanmoq- प्रयोग करना, इस्तेमाल करना; maqtamoq - तारीफ़ करना, प्रशंसा करना; yoqtirmoq - पसन्द आना, पसन्द करना, अच्छा लगना; qaror qilmoq - तय करना, फैसला करना, निश्चय करना. स्मिथ हिन्दी जानता है। Smit hindiy tilini biladi. स्मिथ को हिन्दी आती है। Smit hindiy tilini biladi.

Yuqoridagi jumalalarda जानना *bilmoq* va आना *kelmoq* feʼllari ishlatilgan. Ikkinchi jumlada आना *kelmoq* feʼli koʻchma maʼnoda qoʻllanilgan.

रमेश को यह बात मालूम है। Ramesh bu gapni biladi. राम को इस बात की जानकारी है। Ram bu gapdan xabardor.

Sinonimlarni, ayniqsa, soʻzlashuv nutqida juda koʻp uchratish mumkin. Ular aniqlovchilar, olmoshlar, murakkab otlashgan ort koʻmakchilar bilan ham ifodalanadi. Sinonimlar ogʻzaki nutqda koʻp qoʻllaniladi, lekin ilmiy adabiyotda kam uchraydi.

Shu oʻrinda yuqoridagi sinonimik holatlarni oʻzbek va hindiy tillarida koʻp uchratish mumkin. Sinonimlar oʻzbek va hindiy tillarida ham fikrimizni bir necha xil tarzda tinglovchiga yetkaziladi.

मैं इस रचना को पसन्द करती हूँ। Men shu asarni yoqtiraman.

यह रचना मुझे अच्छी लगती है। Shu asar menga yoqadi.

Bu jumalalarda पसन्द करना va लगना feʼllari *yoqtirmoq* maʼnosini anglatadi. Ushbu namunalar sintaktik sinonimiyaga yaqqol misol boʻla oladi. Nutqimizda shu kabi sinonimlardan

foydalanish orqali bir xil va zerikarli jumladan qochib, nutqimizning yanada jozibali, takrorlanmas bo'lishiga harakat qilgan bo'lamiz. O'zbek va hindiy tillaridagi sinonimlarning keng ko'lamda qo'llanilishi adabiy til leksikasining boyligidan va stilistik imkoniyatlarning afzalligidan dalolat beradi. O'zbek va hindiy tillaridagi sinonimlarni o'rganish jarayonida shunga amin bo'ldik, ki, bu mavzu bo'yicha yetarli bilimga ega emasligimiz ma'lum bo'ldi. Hindiy tili tilshunosligida sinonimlar mavzusi ustida yanada kengroq ishlashimiz va izlanishimiz kerak bo'ladi. Hindiy tilidagi badiiy adabiyot namunalari, matbuot nashrlari, ilm-fanning turli sohalarida uchraydigan sinonimlarni o'rganib chiqishimiz va ular ustida yanada mukammal tadqiqot ishlarini olib borishimiz joizdir.

XULOSA

O'zbek va hindiy tillaridagi sinonimlarni qiyosiy tahlil mavzusi hindshu- noslikda birinchi marta ko'rib chiqildi. Ikki tilning lingvistik xususiyatlarini qiyoslab o'rganish, jumladan, sinonimlardagi o'xshashlik, farqli jihatlari va o'ziga xosligini yanada kengroq tahlil qilish o'zbek hindshunoslari tomonidan olib boriladigan yangi ilmiy izlanishlarning davomi bo'ladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, hindiy tili sinonimlari bilan olib borilayotgan har bir izlanish shu til tilshunoslik qonuniyatlari bilan yaqindan o'rganish imkoniyatini beradi. Bu borada biz hindistonlik tilshunoslar tomonidan yaratilgan hindiy tilining izohli lug'atlari, ilmiy asarlari va maqolalari bilan tanishib chiqishimiz hamda badiiy asarlarda uchraydigan sinonimlarni tahlil qilish jarayoni orqali ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishimiz kerak. Hindiy tili leksikogiyasi ustida chuqur ilmiy izlanishlar olib borilsa, hindshunoslikda o'rganilmagan mavzular ustida yangi ilmiy maqolalar va asarlar yaratish imkoni paydo bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. डी. ब्रजकिशोर प्रसाद सिंह पापुलर हिन्दी व्याकरण. नई दिल्ली. 2016
2. Prof. Suraj Bhan Singh. A Syntatic Grammar of Hindi (हिन्दी का वाक्यात्मक व्याकरण) Ocean Books Pvt. Ltd. 2008. New Delhi.
3. Prof. Suraj Bhan Singh. A Syntactic Grammar of Hindi. New Delhi. 2012
4. A. Hojiyev. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. -T. «Fan» 2013
5. A. Hojiyev, A. Nurmanov, S. Zaynobiddinov va boshqalar. Hozirgi o'zbek tili faol so'zlarining izohli lug'ati. -T. «SHARQ». 2001
6. О. Г. Ульциферов. Очерки по лексикологии, словообразованию и фразеологии современного литературного языка хинди. «МГИМО-Университет». 2009
7. А. Н. Шаматов. Очерки исторической лексикологии хинди и урду XV – XVIII в. «Мусульманская» лексика и южный хиндустан. -Т. «Фан». 1990

8. N. Jamolxonov. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. -T. “Talqin”. 2005.
9. R. Sayfullayev, B. Mengliyev, G. Boqiyeva, M. Qurbonova, Z. Yunusova, M. Abzalova. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. -T. ”O‘zbekiston”. 2010.
10. Mahmudov N. , Nurmonov A. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. -T. ”Fan va texnologiyalar”. 2010.